

SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI SOLIQ SIYOSATINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

Maxamatova Zarina

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0006-9495-3575X

zarina.m.zarinaxon@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada soliq siyosatining barqarorligini ta'minlashda soliq imtiyozlarining o'рни va ahamiyati ularning samaradorligini oshirish bo'yicha mamlakatimizda amaldagi soliq imtiyozlarning turlari va tushumi tahlil qilingan, shuningdek ularning budjet daromadlariga ta'siri o'rganilgan. Soliq imtiyozlarining sohalar bo'yicha tahlillari va uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar hamda tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, soliq imtiyozlari, soliq, soliq imtiyozlari samaradorligi, fiskal, barqarorlik, budjet daromadlari.

НАПРАВЛЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ ПУТЕМ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ЛЬГОТ

Махаматова Зарина

Навоийский государственный горно-технологический университет

Аннотация. В данной статье проанализированы роль и значение налоговых льгот в обеспечении устойчивости налоговой политики, а также действующие в нашей стране виды налоговых льгот и налоговые поступления с целью повышения их эффективности. Кроме того, изучено влияние налоговых льгот на доходы бюджета. Приведён отраслевой анализ налоговых льгот, а также научные и практические предложения и рекомендации по повышению их эффективности.

Ключевые слова: налоговая политика, налоговые льготы, налог, эффективность налоговых льгот, фискальная устойчивость, доходы бюджета.

DIRECTIONS FOR ENSURING THE STABILITY OF TAX POLICY BY INCREASING THE EFFECTIVENESS OF TAX INCENTIVES

Makhamatova Zarina

Navoi State University of Mining and Technologies

Abstract. This article analyzes the role and importance of tax incentives in ensuring the stability of tax policy, as well as the types and revenues of tax incentives currently applied in our country with the aim of improving their effectiveness. In addition, the impact of tax incentives on budget revenues is examined. Sectoral analyses of tax incentives are presented, along with scientific and practical proposals and recommendations for increasing their effectiveness.

Keywords: tax policy, tax incentives, effectiveness of tax incentives, fiscal sustainability, value added tax, budget revenues.

Kirish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda soliqlar vositasida rag'batlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa o'z o'rnida soliq siyosatining barqarorligi ta'minlashi, budjet daromadlarining doimiy va uzluksiz shakllanishi, tadbirkorlar va boshqa iqtisodiy subyektlar uchun oldindan bashorat qilish mumkin bo'lgan soliq sharoitini yaratish, shuningdek, fiskal xatarlarni kamaytirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Soliq imtiyozlari soliq siyosatining eng muhim rag'batlantirish vositalaridan biri hisoblanadi. Ular yordamida iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilishni kuchaytirish va ijtimoiy jihatdan muhim sohalarni qo'llab-quvvatlash ko'zda tutiladi. Ammo imtiyozlarning haddan tashqari ko'payib ketishi yoki ularning haqiqiy samaradorligi to'g'ri baholanmasligi, bu byudjet tushumlarining kamayishiga, natijada soliq siyosatining barqarorligiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda soliq tizimini isloh qilish jarayonida soliq imtiyozlarini optimallashtirishga, ularning sonini qisqartirishga va maqsadli yo'naltirilganligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu o'z o'rnida soliq imtiyozlarining iqtisodiy-moliyaviy samaradorligini chuqurroq o'rganish, shu bilan bir qatorda ularning samaradorligini baholash va qo'llash mexanizmlarini yanada yaxshilash zarurligini ko'rsatib turibdi.

Soliq siyosati davlat moliyaviy siyosatining ajralmas va muhim qismi sifatida tan olinadi. Uning barqarorligi iqtisodiy rivojlanishning uzluksiz va barqaror bo'lishida katta rol o'ynaydi. Soliq siyosati barqarorligi deganda soliq yuki o'rtacha darajada saqlanishi, soliq qonunchiligining oldindan bashorat qilinadigan va o'zgarmasligi, shuningdek, byudjet daromadlarining doimiy ravishda shakllanishi tushuniladi. Bunday barqarorlik fiskal tizimning tashqi va ichki iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini oshiradi va xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun noaniqlik va xavf-hatarlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Soliq imtiyozlari soliq siyosatini hayotga tadbiq etishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ular yordamida davlat iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rag'batlantiradi, investitsiya muhitini jozibadorligini oshiradi va ijtimoiy jihatdan zarur sohalarni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari ikki tomonlama ta'sirga ega: bir tomondan iqtisodiy faollikni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan budjet daromadlari bazasini kamayishiga olib keladi. Shu sababli ularning samaradorligi oshirish orqali soliq siyosati barqarorligini ta'minlash muhim omillardan biri hisoblanadi.

Soliq imtiyozlarining samaradorligi odatda uch asosiy yo'nalishda baholash muhim hisoblanadi: iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy samaradorlik. Moliyaviy (fiskal) samaradorlik imtiyozlar tufayli byudjetda yuzaga keladigan yo'qotishlarning keyinchalik soliq bazasining kengayishi hisobiga qoplanish darajasini ko'rsatadi. Iqtisodiy samaradorlik esa imtiyozlar natijasida ishlab chiqarish hajmining oshishi, investitsiya oqimining ko'payishi yoki eksport imkoniyatlarining kengayishi kabi natijalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy samaradorlik esa aholining farovonligi, bandlik darajasi va ijtimoiy xizmatlar sifatiga ta'sir etish orqali namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, soliq siyosati barqarorligi nuqtai nazaridan soliq imtiyozlarining moliyaviy (fiskal) samaradorligi alohida e'tiborga loyiqdir. Agar imtiyozlar yetarli tahlil qilinmasdan joriy etilsa yoki uzoq muddat qayta ko'rib chiqilmasa, byudjet tushumlarining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy soliq siyosatini yuritishda imtiyozlarning joriy etilishi yoki bekor qilinishi aniq tahlillarga tayanib, olingan natijalar asosida belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq imtiyozlarining samaradorligini ta'minlash mexanizmi soliq siyosati barqarorligini mustahkamlashda institutsional vosita sifatida o'zini ko'rsatadi. Bu mexanizm imtiyozlarni taqdim etish mezonlarini, ularning amal qilish muddatini, monitoring va baholash tizimini, shuningdek, natijalarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlarini qamrab oladi. Aynan shu

mexanizmni takomillashtirish soliq siyosatini qisqa muddatli rag'bat choralaridan uzoq muddatli va barqaror fiskal vositaga aylantirishga yordam beradi.

Shunday ekan, soliq imtiyozlari soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynashi bilan birga, agar ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq va tizimli mexanizmlar mavjud bo'lmasa, fiskal barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, soliq imtiyozlari samaradorligini oshirish usullarini aniqlash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash bo'yicha Mandroshenkoning (2016) fikricha, soliq imtiyozlarining samaradorligi asosan 3 ta ko'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi: Ijtimoiy, iqtisodiy va byudjet samaradorligi koeffitsienti. Uning aytishicha, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ballar asosida baholanadi: 1 ball imtiyozi samarali hisoblanadi; nol yoki unga yaqin bo'lsa samarasiz bo'lib, soliq imtiyozlari salbiy hisoblanadi. Soliq imtiyozlarining byudjet samaradorligi esa, soliq tushumining oshishi bilan yo'qotishlar o'rtasidagi nisbat 1 dan yuqori bo'lsa, soliq imtiyozlarining byudjet samaradorligi ijobiy deb hisoblanadi.

Savinaning (2016) fikricha, hududlarda soliq imtiyozlari samaradorligini aniqlash bo'yicha alohida metodika mavjud bo'lib, ular 3 ta - budjet, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikka asoslanganligini keltirib o'tgan.

Mayburov (2013) esa, soliq imtiyozlari maqsadli bo'lishi uchun uning fiskal, ijtimoiy, iqtisodiy va byudjet samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiq deb keltirgan.

Mahalliy olimlarimizdan Ashurova (2024) o'z ilmiy ishlarida, soliq imtiyozlari o'z samarasini beradigan bo'lsa, bunday imtiyozlar muddatini uzaytirish va samara bermaydigan imtiyozlarni bekor qilish maqsadga muvofiq deb e'tirof etganlar. Normurzayev (2023) tomonidan esa soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari va uni ustidan nazorat qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirish va soliq siyosatining barqarorligini ta'minlash borasidagi mahalliy amaliyot va xorijiy dalatlar tajribalari masalalari bo'yicha izlanishlari, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha maxsus yondashuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda soliq imtiyozlarining amaldagi holati va samaradorligi tahlili Ushbu bo'limda O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha hozirda qo'llanilayotgan soliq imtiyozlarining turlari va hajmi 2025-yilning 11 oyi holatiga oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tahlil davomida imtiyozlarning yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti, ularning umumiy hajmdagi ulushi, shuningdek, fiskal samaradorlikka ta'siri baholanadi. Endi soliq imtiyozlari qanday me'yoriy hujjatlar asosida berilishini tahlil qilamiz.

2025-yilda soliq imtiyozlarini berish xolatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 71,8 foizi O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga, 6,1 foizi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga, 1,9 foizi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qaroriga muvofiq va qolgan qismi esa boshqa me'yoriy hujjatlar asosida berilgan. Bundan ko'rinib turibdiki soliq imtiyozlarining katta qismi soliq kodeksiga asosan beriladi.

**2025 yil davomida me'yoriy-xuquqiy hujjatlar kemisida foydalanilgan
soliq imtiyozlari to'g'risida MA'LUMOT**


T/r	Soliq turi	Soliq imtiyozlari foydalanilgan	
		Xolatlar soni	Ulushi, %da
	Jami	176 685	100,0
1	Soliq kodeksi	125 314	71,8
2	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	1 125	0,9
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori	7 209	1,9
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni	32 354	6,1
5	Vazirlar Mahkamasi qarori	1 528	0,7
6	Boshqa hujjatlar	9 155	18,6
	Jami	176 685	100,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Soliq imtiyozlarini berilishini endi soliq turlari kesimida ko'rib chiqamiz. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, soliq imtiyozlari eng katta qismi qo'shilgan qiyman solig'i bo'yicha ya'ni jami imtiyozlarning 75,7 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich soliq imtiyozlarining byudjet daromadlari shakllanishida muhim o'rin egallashini ko'rsatib turibdi. Shu bilan birga, imtiyozlarning tarkibiy tahlili ularning ayrim yo'nalishlarda yuqori darajada to'planib qolganini aniqlashga yordam beradi.

Xususan, soliq imtiyozlarining eng katta qismi eksport va unga tenglashtirilgan xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi. Bu jami soliq imtiyozlarining taxminan **34,9 foiziga** teng va eksportni rag'batlantirish soliq siyosatining ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, moliyaviy va sug'urta xizmatlari bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari umumiy imtiyozlardagi ulushi 21,5 foizini tashkil etgan. Bu ikki yo'nalishdagi imtiyozlar jami hajmning asosiy qismini egallab, soliq siyosatida ayrim sektorlarning ustunligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar 15,2 foizni tashkil etgan. Qolgan soliq to'lovlari bo'yicha beriladigan imtiyozlar ulushi 2,5 foizdan 0,1 foizgachani tashkil etganligini ko'rish mumkin.



1-rasm. 2025-yilda soliq turlari kesimida foydalanilgan soliq imtiyozlari (foizda)

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qolgan soliq imtiyozlari ta'lim, tibbiyot, axborot texnologiyalari, transport va ijtimoiy xizmatlar kabi sohalarga taqsimlangan bo'lib, ularning har biri umumiy imtiyozlar hajmida nisbatan kam ulushga ega. Bunday vaziyat soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholashda nafaqat umumiy hajmini, balki yo'nalishlar bo'yicha taqsimotini ham hisobga olish kerakligini ko'rsatadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, QQS bo'yicha soliq imtiyozlarining asosiy qismi ikki yirik yo'nalishda jamlangan bo'lib, eksport va unga tenglashtirilgan xizmatlar hamda moliyaviy va sug'urta xizmatlari tashkil etadi. Bu holat soliq imtiyozlari tizimida yuqori darajadagi konsentratsiya mavjudligini ko'rsatadi.

Xususan, soliq imtiyozlarining ayrim yo'nalishlarda ko'proq berilishi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda byudjet tushumlarining barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirishi ehtimoli yuqori hisoblanadi. Chunki, soliq bazasining ma'lum segmentlar hisobiga torayishi fiskal xatarlarni kuchaytiradi va soliq siyosatining o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini pasaytiradi.

Shuning uchun soliq imtiyozlarini qo'llashda nafaqat ularning umumiy hajmi, balki yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishi va haqiqiy natijadorligi ham har tomonlama baholanishi kerak. Ushbu tahlil natijalari soliq imtiyozlarini baholash va optimallashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, soliq imtiyozlari samaradorligini oshirish orqali soliq siyosati barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillardan ko'rish mumkinki, O'zbekistonda soliq imtiyozlari tizimining muayyan yo'nalishlarda yuqori darajada jamlanib qolganini va ularning fiskal samaradorligini baholash mexanizmlarini yanada kuchaytirish lozimligini ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan, soliq siyosati barqarorligini ta'minlash to'g'ridan-to'g'ri soliq imtiyozlarining natijadorligiga bog'liqdir. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, soliq imtiyozlarini joriy etish, saqlashda aniq va shaffof mezonlar tizimini yaratish zarur. Bu mezonlar imtiyozlarning byudjet tushumlariga ta'siri, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish darajasi va maqsadga muvofiqligini baholash imkonini berishi lozim. Natijada fiskal samaradorligi past bo'lgan imtiyozlarni aniqlab, ularni bosqichma-bosqich qisqartirish yoki optimallashtirish mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, soliq imtiyozlarini baholashda natijaga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunda imtiyozlar tufayli yuzaga kelgan byudjet yo'qotishlari ularning iqtisodiy natijalari (ishlab chiqarish o'sishi, investitsiyalar, bandlik va h.k.) bilan solishtiriladi va faqat ijobiy samara beradigan imtiyozlar saqlanib qoladi. Bu yondashuv soliq siyosatini qisqa muddatli rag'batlantirish vositasidan uzoq muddatli barqaror fiskal mexanizmga aylantirishga yordam beradi.

Uchinchidan, soliq imtiyozlari bo'yicha ochiq va shaffof monitoring tizimini joriy etish zarur. Statistik ma'lumotlarning muntazam e'lon qilinishi va tahlil qilinishi soliq imtiyozlari samaradorligini baholashda ilmiy asoslangan va o'z vaqtida qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi mexanizmlarni joriy etish soliq imtiyozlari samaradorligini oshirish, soliq siyosati barqarorligini ta'minlash, byudjet daromadlarining oldindan bashorat qilinadigan darajasini ko'tarish va fiskal xatarlarni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Soliq siyosatining barqarorligini ta'minlashda soliq imtiyozlar samaradorligini baholash va optimallashtirish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur deb hisoblaymiz. Xususan, imtiyozlarni natijadorlikka asoslangan aniq mezonlar bo'yicha baholash, ularning vaqtinchalik xususiyatini kuchaytirish, fiskal samaradorligi past bo'lgan imtiyozlarni bosqichma-bosqich qisqartirish soliq siyosatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim qadam bo'ladi.

Adabiyotlar / Лумепамыра / Reference:

Ashurova N.B. (2014) O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishiga soliq siyosati ta'sirining tahlili va prognozi // Экономика и финансы (Узбекистан). №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-i-tisodiyotining-bar-aror-sishiga-soli-siyosati-tasirining-ta-lili-va-prognozi> (dama obraшeния: 26.01.2026).

Ashurova, Nasiba, et al. (2025) "Analysis of Foreign Experience of CSR Models: the Role of Business in Overcoming GLOBAL Crises." Advanced Economics and Pedagogical Technologies, vol. 2, no. 1, 15 Feb., pp. 248-261, doi:[10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss1-pp248-261](https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss1-pp248-261).

Gadoyev E.F., Kuziyeva N.R., and Ashurova N.B. (2013) "Soliq siyosati strategiyasi".

Normurzayev U. (2023). Soliq imtiyozlari berish tarkibini takomillashtirish masalalari. Economics and education, 24 (1), 334-339.

Ашурова Н, Чекулаева К. (2024) ОСНОВЫ МЕТОДОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ КОРПОРАТИВНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. Экономическое развитие и анализ. Сер 30;2(9):234-42.

Майбуров И.А. (2013) Оценка налоговых расходов и эффективности налоговых льгот: методология решения задачи // Общество и экономика. - № 4. – С.71-91.

Мандрощенко О.В. (2016) Основные подходы к оценке эффективности налоговых льгот. Ж. Финансовая аналитика: проблемы и решения. № 39. 45-60 стр.

Савина О.Н. (2016) Подходы к оценке эффективности налоговых льгот: действующая практика и проблемы реализации. Ж. Научные известия. №4, 38-47.